

D.S. UMIROVA

MEHMONXONA XO'JALIGINI BOSHQARISH

O'quv qo'llanma

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan 5610200 – "Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" mutaxassisligi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – «IQTISODIYOT» – 2019

KIRISH

Ta'kidlab o'tish joyizki turizmning rivojlanishi birinchi navbatda turizm industriyasining o'zagi bo'lgan mehmonxonalarining rivojlanishi bilan ham bog'liq. Chunki, mehmonxona biznesi turizmning ajralmas qismi bo'lib, birinchi navbatda turistlarni qabul qiluvchi va turistlarning tunashga, dam olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi, murakkab xizmatlarni amalga oshiruvchi eng muhim bo'lagi hisoblanadi.

So'nggi yillarda dunyo bo'ylab mehmonxonalar soni ortib bormoqda, shu bilan birga jahon brendlarining dunyo bo'ylab filiallari ochilmoqda. SHu sababli mehmonxona kompaniyalari o'rtasida raqobat kuchaymoqda. Muayyan mehmonxonaning har bir vakili kelayotgan mijozlarni o'ziga jalb etish uchun yangi xizmatlar, yangi aksiyalar, yangi mehmonxona infratuzilmasini yaratishmoqda. Mehmonxona kompaniyalari jahon bozorida o'z o'rnini puxta egallash maqsadida, muayyan mijozlar doirasi uchun mo'ljallangan yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish va yuqori darajadagi qulaylik yaratish vazifasini bajarish orqali o'z maqomini yaratishi zarur.

Keyingi paytlarda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish masalalariga hukumatimiz katta e'tibor berib kelmoqda. Respublikamizning shaharlarida, viloyatlarida yangi mehmonxonalar, turistik firmalarni tashkil etish, ularda ko'rsatiladigan xizmatlar sonini ko'paytirish va ko'rsatiladigan, ya'ni taklif etiladigan xizmatlarning sifat darajasini xalqaro standartlarga moslashtirish, mintaqalarda turizmni rivojlantirish bo'yicha aniq reja va dasturlarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Davlatimiz rahbarining 2016- yil 2- dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga muvofiq, sayyohlik mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida belgilandi. O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Prezident Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasida 2019—2025 yillarda Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi va chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Unga ko'ra turizm sohasi rivojining asosiy bosqichlari